

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 30 martdagi 252-sonli “O`zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish, shuningdek, ba`zi qarorlarini o`z kuchini yo`qotgan deb hisoblash to`g`risida”g

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prokuratura organlarining qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta`minlashdagi faoliyati samaradorligini oshirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida” 2018 yil 15 fevraldagi PF-5343-son Farmoni ijrosini ta`minlash maqsadida Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi**:

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 30 martdagi 252-sonli “O`zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish, shuningdek, ba`zi qarorlarini o`z kuchini yo`qotgan deb hisoblash to`g`risida”gi qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida atab o`tilgan qarori asosida:

a) O`zbekiston Respublikasi Hukumatining 1-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritilganligi;

b) O`zbekiston Respublikasi Hukumatining 2-ilovaga muvofiq ba`zi qarorlari o`z kuchini yo`qotgan deb hisoblanganligi ma`lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog`iston Respublikasi Hukumatining ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o`z kuchini yo`qotgan deb hisoblansin.

4. Vazirliklar va idoralar o`zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari S.Nag`metov zimmasiga yuklansin.

Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi

Q. Sariev

Ko`rib chiqildi:

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)